

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS JARAYONIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Muxiddinova Yulduz

Reyimboyeva Bibixonim

Menglibayev Muhammadkalom

*NDPI Ellikqala pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lism va
Matematika yo'nalishi talabalari*

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'lism jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish toboro keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lism samaradorligi vata'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. Innovatsiya- yangilik kiritish,yaratishdir. Demak, an'anaviy ta'limgagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lism jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir.

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lism texnologiyalari, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiya, matematika, boshlang'ich sinf .

Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lism maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ta'lism jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmalarini egallash jarayonidgi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko'proq interaktiv metodlarga e'tibor qaratish ta'lism samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so'zi inglizcha-interaction,ya'ni interaro,o'zaro,asta harakat ma'nosini anglatadi.) Interaktiv usullar - bu o'zaro harakat,ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir.

Interaktiv usullarning asosiy turlari:

Kognitiv usullar.

O'yinlar, eksperimental faoliyat.

Ishbilarmonalik o'yinlari,modellashtirish.

Amaliyot orqali o'qitish,bevosita faoliyat.

Boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari.

Innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari:

Ilmiylik tamoyili - har qanday o'quv predmeti o'quv materiali fanning zamonaviy yutuqlarga tayanish lozimligini ko'rstadi. Bu tamoyil o'quv dasturlari, o'quv qollanma,

darsliklarini yaratishda amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga ko'ra har yili fanlarning ishchi o'quv rejalarini va o'quv materiallarini takomillashtirish talab etiladi.

Loyihalash tamoyili - o'quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarni o'quv jarayoni grafigi, o'quv reja, fanning ishchi o'quv dasturi, fan bo'limlari o'quv maqsadlari toifalari, o'qitish jarayoni texnologiyasi egallangan bilim va malakalarini baholash mezonini yaratishni anglatadi.

Tizimlilik tamoyili - o'quv jarayonining barcha elementlari, ularning o'zaro bog'liqlik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili - har bir fanni o'qitish jarayoni ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Boshqaruvchanlik tamoyili - o'quv jarayoni boshqariladigan taqdirda o'qitishning rejalashtirilgan natijasiga erishish mumkin.

Qayta takrorlanish tamoyili - zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, zaruriy miqdordagi mahsulot tayyorlash, oldindan tayyorlangan hujjatlar asosida amalga oshitiladi.

Samaradorlik tamoyili - innovatsion texnologiyalarni o'qitishning ko'zlangan natijalariga maqbul hujjatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishni ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi. Darsning oldindan loyihasi, ya`ni texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtini aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish

va bosqichlar o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash, vaqtidan unumli foydalanish imkonini beradi.

“Baliq skeleti” texnologiyasi

Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepe qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida “Yo‘l qoidalari” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq sklitini boyitib boradilar.

Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.

“Venn diagrammasi”

Ushbu texnologiya ona tili, o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta‘lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta‘lim berish mamlakatimizning ta‘lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta‘lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o’taydi. Darslar jarayonida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o’stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo‘lamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. A.Jumayev matematika o‘qitish metodikasi[1]
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent 2006
3. Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2005.[3]
4. Sherqulov. M . Ma’ruza matni dan, Toshkent: 2012.[4]
5. S.Alixonov Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent-2017[5]